



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 24-sentabr, seshanba,  
110 (23.987)-son

**KUN  
HIKMATI**

Kitob o'qish  
fikrlashni,  
xulosani qog'ozga  
tushirish esa  
ma'rifatni  
o'rgatadi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



## Indoneziyaning beshinchi Prezidenti

“Ipak yo‘li” universiteti faxriy professori bo‘ldi

**Samarqand shahridagi “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universitetida shu kunlarda yurtimizga kelgan Indoneziya Respublikasining beshinchi Prezidenti, milliy tadqiqot va innovatsiya agentligi boshqaruvchilar kengashi raisi Megavati Sukarnoputri xonim ishtirokida uchrashuv o‘tkazildi.**

Universitet rektori, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri Aziz Abdurahimov Megavati Sukarnoputri xonimni yurtimizga tashrifi bilan tabriklab, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritdi.

– Men uchun O‘zbekistonda bo‘lish, muqaddas qadamlarni ziyorat qilish ulkan sharaf, – dedi Megavati Sukarnoputri xonim. – Chunki mening otam – Indoneziyaning birinchi Prezidenti Sukarno

bu yerdagi Imom Buxoriy qabrini ziyorat qilishni orzu qilib, juda qiyinchilik bilan bu niyatiga erishgan. Men ham otamdan bu ulug‘ zot haqida ko‘p eshitganman va o‘shandayoq buyuk muhaddis mangu orom topgan maskanni ziyorat qilishni ko‘nglimga tukkandim. Bugun bu orzuim amalga oshganidan xursandman. O‘zbekistonda keyingi yillarda turizm sohasini, jumladan, ziyorat turizmni rivojlantirish borasidagi ishlar haqida eshitgandim, endi esa bunga bevosita guvoh bo‘ldim. Biz O‘zbekistonning bu boradagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaymiz va hamkorlik qilishga tayyormiz.

Tadbir doirasida universitetning navbatdagi 130 nafar magistrilariga diplom topshirish marosimi o‘tkazildi. E‘tiborlisi, bitruvchilarning 95 nafari 16 xorijiy davlat yoshlari hisoblanadi.

Diplom topshirish marosimida Megavati Sukarnoputri xonimga “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universitetining “Faxriy professori” unvoni berildi.

**B.MUSTANOV.**

## Jomboyliklar uchun sayyor qabul

**Jomboy tumani Ko‘kgumbaz mahallasi-dagi 2-sektor shtabida viloyat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar rahbarlarining sayyor qabuli o‘tkazildi.**

Tadbir avvalida mas‘ullar tumanning bir qator yoshlariga ID-kartalarini topshirdi.

Keyin tuman aholisi uchun bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasi tashkil etildi. Unda 135 ta korxonatashkilot 509 ta bo‘sh ish o‘rni bilan ishtirok etdi.

Qabul davomida fuqarolar mas‘ullarga ishga joylashish, mehnat munosabatidagi nohaqliklar, mulkka egalik va meros masalalarida murojaat qilishdi.

– Nevaramni vasiylikka olganman, – deydi tumanning Ahmadjon Qurbonov nomli mahallasidan Tursun Mamara-jabova. – Bir yildan beri bola nafaqasini rasmiylashtiraman,



deb ovoraman. Viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘idan yordam so‘radim. Mas‘ullar bilan gaplashtirdi. Tez orada muammo hal bo‘ladigan bo‘ldi. Shuningdek, tadbirda “Yosh-

lar daftari”ga kiritilgan 27 nafar, “Ayollar daftari”dagi 20 nafar fuqaroga o‘zini o‘zi band qilish va daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun zarur texnikalar topshirildi.

## INDALLOSINI AYTGANDA...

**Saidasror G‘ULOMOV,  
professor:**

– Hammaning ham biznesga uquvi bo‘lavermaydi. Shu bois ham ommaviy tarzda kredit berilishi kambag‘allikdan chiqishga imkon bermasligi mumkin. Buning uchun, avvalo, aholini kasblarga o‘rgatish kerak.



**Prezidentlik bo‘ladimi, deputatlikka saylovlarmi, odamlarda turli savollar tug‘ilishi tabiiy. Buning ustiga partiyalar uchun siyosiy imtihon bo‘lgan tadbir tartiblarida o‘zgarishlar bo‘lsa...**

**Shu bois, istalgan kishida tug‘ilish mumkin bo‘lgan ayrim savollar bilan hududiy (viloyat) saylov komissiyasi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi kotibi Amrillo Aktamovga murojaat qildik.**

– Amrillo aka, ilgari saylovlardan farli o‘laroq, saylovga 35 kun qolganiga qaramasdan bugungi kungacha tuman (shahar)dagi vakillik organi deputatligiga saylov o‘tkazuvchi okrug komissiyalari tarkibi tasdiqlanmadi. Bu ovoz berish natijalarini umumlashtirishda qiyinchilik tug‘dirish barobarida boshqa muammolarga sabab bo‘lmaydimi?

– Birinchidan, okrug komissiyalari birgina shahar va tumanlar darajasida emas, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga o‘tkazilayotgan saylovlarda ham bo‘lmaydi. Ya‘ni, viloyatlarda ham parlament quyi palatasi deputatligi uchun okrug tuzilishini bilan ularda komissiyalar faoliyat yuritmaydi.

Bu haqda gap ketganda bu orqali uch yuzdan besh yuzgacha odam saylovni tashkiliy ishlariga jalb etilishining oldi olinganini aytish o‘rinli. Negaki, Kattaqo‘rg‘on shahrida 20, Samarqand shahri, Urgut va Past Darg‘om tumanlarida 30 nafardan va qolgan barcha tumanlarda 25 nafardan hududiy Kengash deputati saylanadi. Demak, shunchadan okrug tuzilishini hisobga olsak, 350 dan ortiq okrug bo‘ladi. Agar ularning har birida 11 nafardan komissiya a‘zolari tashkiliy ishlariga jalb qilinsa, qancha odam biriktiriladi?

Ikkinchidan ular faoliyati uchun sarflanayotgan moliyaviy resurslar iqtisod qilinyapti.

Xo‘p, ovoz berish natijalarini umumlashtirishda muammo yuzaga kelishi mumkin emas. Chunki, bu jarayonda asosiy ishlar uchastka komissiyalari

## SAYLOV SIRLARI

yoki jarayon tartiblari haqidagi savollarga javoblar

tomonidan amalga oshiriladi. Hududiy saylov komissiyalarida esa ularni umumlashtirish, boshqacha aytganda oddiy arifmetik amal qoladi.

– Hozir saylovlarda moliyaviy masalalarda iqtisod qilinayotgani haqida gapirdingiz. Saylov bulletinlari hajmi kichraytirilishi ortidan ham qanchadir mablag‘ tejalayotgani aytilgandi.

Bularning barchasi alal-oqibat mamlakat hayotidagi muhim siyosiy jarayondan pul tejalayotganini, boshqacha aytganda unga e‘tibor kamayayotganini ko‘rsatmaydimi?

– Balki bir qarashda shunday ko‘rinayotgandir. Ammo masalani chuqurroq o‘ylab ko‘rgan odam bunday fikrga bormasligi aniq. Birgina misol keltiraman, viloyatlarda endi referendum, Prezidentlik saylovlarini tashkil etish uchun yagona, ya‘ni hududiy saylov komissiyalari tuzildi.

Avval bu komissiyalarda birgina doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi kotib bo‘lardir. Endi hududiy saylov komissiyalarida rais o‘rinbosari ham besh yil davomida faqat shu tizim uchun (tabiiyki, haq to‘lanadi) ishlaydi.

Birgina shuning o‘zi saylov tizimi puxta tashkil etilishiga xizmat qilish barobarida jarayonga jiddiy e‘tibor berilayotganini ko‘rsatib turibdi.

Bundan tashqari, bulletinlar hajmi kichrayishi ortidan mablag‘ iqtisod qilinayotgani bor gap. Ammo endi saylov uchta emas, to‘rtta bulletin orqali o‘z siyosiy irodasini ifodalashi-chi?! Ya‘ni, endi bulletinlar soni ortishi sababli mablag‘ sarfi ham ko‘payadi.

E‘tibor haqida gap ketarkan, saylovlarda ovoz berish jarayonlarini onlayn kuzatish imkoniyati yaratilayotganini aytib o‘tish o‘rinli. Katta mablag‘ sarflanadigan bu ish hajmi o‘tgan saylovlardan ko‘ra kengaysa kengayadiki, kamaymaydi. Qolaversa, bu galgi saylovlarda elektron ovoz berishni ham sinab ko‘rish rejalashtirilayapti. Tabiiyki, bu masala kattagina mablag‘ bilan bog‘liq bo‘ladi.

– Tumanlarda deputatlikka sayla-



MENING TANLOVIM — OBOD VATANIMI

**nish nisbatan osonroq, chunki ham-ma – saylov tashkilotchilaridan tortib ovoz beruvchilargacha seni taniydi, degan gapga qanday qaraysiz?**

– Birinchidan, saylov komissiyasi faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Uchastka yoki shahar-tuman, hududiy saylov komissiyalari va ularning a‘zolari o‘z faoliyatini har qanday davlat organlaridan, jamoat birlashmalaridan va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi.

Saylov komissiyalarining faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Qolaversa, viloyatda uch nafargacha, shahar-tuman vakillik organiga nomzod esa ikki nafargacha ishonchli vakil olishi mumkin. Bu esa xalq deputatlari shahar yoki tuman Kengashi deputati butun okrug hududidagi jarayonlarni jamoatchilik nazoratiga olishiga imkon beradi.

Xo‘p, nazorat qildi ham deylik, qonunbuzarlik aniqlansa, nima bo‘lardi, degan tabiiy savol tug‘ilishi mumkin. Avvalo, ovoz berish natijalarini soxtalashtirish uchun ma‘lum muddat ozodlikdan mahrum qilishgacha bo‘lgan jazoga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ovoz berishga kelgan saylovchiga “pachkalab” bulletin bergan uchastka saylov komissiyasi a‘zosi ma‘muriy javobgarlikka tortilishi belgilandi. Qayd qilingan xat-ti-harakat uchun jarima ko‘zda tutilgan.

Shu bois hudud odamlariga vakillik organida faoliyat ko‘rsatishga munosibligini isbotlagan nomzod uchun sun‘iy to‘siq bo‘lmaydi, deb aytish mumkin. Qolaversa, bu galgi saylovlarda ovoz berganlarning yarmidan ko‘pining ovozini olish shartmas, nomzodlar orasida boshqalarga nisbatan ko‘proq ovoz to‘plash yetarli.

– Shu o‘rinda yana bir haqli savol tug‘iladi, mutlaq ko‘pchilikning ovozi o‘lgan nomzod saylanishi, ya‘ni takroriy saylovlarga o‘rin qoldirmayotgani ham saylovdan mablag‘ tajalayotganini ko‘rsatmaydimi?

– Yo‘q, bunday, deb hisoblash mutlaq noo‘rin. Chunki bu o‘zgartish har bir ovozning qiymatini oshirish bilan ahamiyatli. Qolaversa, bu yangilik bilan takroriy saylov bo‘lmaydi, degani emas. Agar saylov o‘tmagan yoxud saylov okrug bo‘yicha haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa, takroriy saylovlar o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, nomzodlarga eng ko‘p yoqlab berilgan ovozlar soni teng bo‘lgan taqdirda takroriy saylov bo‘ladi. – Bu yilgi saylovlar kuchli raqobat muhitida o‘tadi, deyilmoqda. Saylov haqida siz yana nimalar degan bo‘lardingiz?

– Albatta, amaldagi tartibning o‘zi partiyalar o‘rtasida sog‘lom raqobat bo‘lishiga xizmat qiladi. Negaki, joylarda nomzodning saylovoldi uchrashuvlari siyosiy partiyalar tomonidan tashkil qilinadi. Shuning o‘zi qaysi siyosiy kuch qayerda ko‘proq tanilgan bo‘lsa, yetakchilari jamoatchilikni jalb qilish imkoniga ega bo‘lsa, ko‘proq va samaraliroq muloqotlar o‘tkazishini ko‘rsatadi. Lekin bunda bitta omil – nomzodlarning saylovoldi uchrashuvlarini o‘tkazishda mahalliy hokimliklar ham yordam berishini e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Saylovchi endi nomzodlar bilan birga siyosiy partiyalarga ham ovoz berishi partiyalar o‘rtasidagi raqobatga xizmat qiladi. Ko‘proq ovoz olgan partiya Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga proporsional saylovda ko‘proq o‘rin olarkan, demak, siyosiy kuch o‘laroq odamlar ishonchini ko‘proq qozonishga intilishi shubhasiz.


– Mazmunli suhbat uchun tashakkur.

Yoqubjon MARQAYEV suhbatlashdi.

## GAZETA O‘QIYAPSIZMI?

OILANGIZ – CHI?

Zamon zayli ekan, deb faqat telefonga qarab qolmayapsizmi?



“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalariga 2025-yil uchun obuna boshlandi. Obunani tahririyatdan rasmiylashtirsangiz, mablag‘ni tejaysiz! Ishonavering!

Murojaat uchun telefonlar: (66)233-91-51, 233-91-55

24 – SENTABRdan  
1 USD – 12 747,29 so‘m (+17,46),  
1 EUR – 14 158,42 so‘m (–49,34),  
1 RUB – 137,27 so‘m (–0,19)  
etib belgilandi.



# SAMARQANDDA

## 1,2 milliard kVt ELEKTR ENERGIYASI ishlab chiqariladi(mi?)

**Dunyo aholisi 8 milliarddan oshdi. Bugun sanoat ishlab chiqarishi, xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan kundalik ehtiyojimizgacha elektr energiyasini tasavvur etib bo'lmaydi. Ko'p miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarish resurslari esa cheklangan. Qolaversa, bu atrof-muhitning ifloslanishiga ham olib keladi.**

### NEFT ZAXIRASI 50 YILGA HAM YETMAYDI

Elektr energiyaning asosiy qismi foydali qazilmalarning yoqilishidan olinadi. Xalqaro energetika agentligi (XEA)ning xabariga ko'ra, 2021-yilda jami elektr energiyasining 37 foizi ko'mir-dan, 23,5 foizi esa tabiiy gaz yoqilishidan ishlab chiqarilgan. Worldometer saytining xabariga ko'ra, dunyoda 200 milliard ton-nadan kam neft zaxirasi qolgan. Bu 47 yilga yetadi, xolos.

Ko'mir zaxirasi 1 trillion tonna, tabiiy gaz 170 milliard kub metr atrofida qolgan. Ularning zaxirasi, ko'mir taxminan 133 yilga, gaz 52 yilga yetadi.

Energiya ishlab chiqarish uchun yonilg'i materiallarini

**Hozir-da viloyatimizda 4877 ta xonadonga 8,78 mVt quyosh panellari o'rnatilgan. 963 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idoralari 16,08 mVtli qurilmalar o'rnatilgan. Shu kungacha viloyatimizda 47 ta ko'p qavatli uyda 0,50 mVt, 925 ta tadbirkorlik subyekti esa 39,63 mVtli qurilmalardan foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunda 100 dan ziyod korxonaga va tashkilotga hamda aholi xonadonlariga o'rnatilgan quyosh panellari orqali elektr tarmoqlari korxonalariga sotilgan quvvatlar hisoblanib, pul mablag'larini o'tkazib berilgan. Jumladan, "Hududiy elektr tarmoqlari" Samarqand filiali tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 892 million so'm, soliq idoralari tomonidan aholiga 300 million so'm to'lab berilgan.**

qazib olish suv resurslariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. YUNESKOning ma'lumotiga ko'ra, dengizda 120 tonna neftni qazib olishda 400 tonna qazish shla-mi va ming tonnadan ortiq turli chiqindi suvga tashlanadi. Hidrokeshis usuli bilan yerni ochishda oqova suvlar hosil bo'lib, ular yer osti suvlarini ifloslantiradi.

Xalqaro energetika agentligining xabariga ko'ra, 2021-yilda elektr energiyaga bo'lgan talab 6 foizga o'sgan. Biroq elektr energiyasini ishlab chiqarish, tashish va iste'moli oltingugurt dioksidi kislota yomg'irlarini keltirib chiqarishi bilan atrof-muhitga katta zarar yetkazadi. Bular hayvon va o'simliklar uchun juda ham xavfli. Mazkur birikma insonning yurak-qon tomir faoliyati, nafas yo'llariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Azot oksidi toksik bo'lib, o'pka saratonini ham keltirib chiqarishi mumkin. Asosiysi, u iqlim o'zgarishini tezlashtiradi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishda hozirda qo'llanilayotgan deyarli barcha uslublar insoniyatga zararli bo'lsa, unda qanday energiya turidan foydalanish lozim?

Axir dunyoni energiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi!

Jahonning ko'plab taniqli ekolog va energetiklari eng xavfsiz energiya turi sifatida muqobil energiyadan foydalanishni taklif etishmoqda. Chunki bu turdagi energiyani ekologiyaga zararsiz olish mumkin.

Bu turdagi energiya quyosh,

**Maishiy texnika jihozlari kutish rejimida oyiga o'rtacha 7,3 kVt/soat elektr energiyasi sarflaydi.**

shamol, geotermal issiqlik (er osti issiqligi), biyoyonilg'idan olinadi. Ularning yoqilishi natijasida havoga juda kam tashlanmalar chiqariladi. XEAning ma'lumotiga ko'ra, 2020-yili muqobil energiya ishlab chiqarilishi dunyoda 29 foizga yetgan. 2050-yilda CO<sub>2</sub> havoga tashlanishini 0 foizga tushishi uchun muqobil energiya 60 foizga yetishi lozim.

### YANGIDAN QURILAYOTGAN BARCHA OBYEKTLAR MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANADI

Respublikamizda 2023-yil 1-yanvardan boshlab yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan barcha davlat va xususiy ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, madaniyat va turizm, umumiy o'qatlanish, xizmat ko'rsatish obyektlari, sport komplekslari, lokal isitish issiqlik tizimiga ulanadigan ko'p xonadonli uy-joylarb "Yangi O'zbekiston" massivlari, umumiy maydoni ming kvadrat metrdan katta bo'lgan barcha savdo-ko'ngilochar markazlarining bino-inshootlarini loyihalashtirish va ishga tushirishda issiq suv iste'molining kamida 25 foizi ushbu obyektlarda o'rnatiladigan quyosh suv isitish qurilmalari orqali qoplanishi talabi qo'yilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish ko'zda tutilmagan loyiha hujjatlari bo'yicha qurilish ishlarini boshlash hamda issiq suvdan foydalanish ko'zda tutilgan yangi bino-inshootlarda quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatish ko'zda tutilmagan taqdirda bunday bino-inshootlarni foydalanishga qabul qilish taqiqlanadi.

Ijtimoiy soha obyektlari va boshqa budjet tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xo-dimlari faoliyati samaradorligi KPI (foydali ish ko'effitsiyenti) tizimi asosida baholalanayotganda ularning energiya tejoychi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish ishlari alohida inobatga olinadi.

### BITTA XONADON EHTIYOJI UCHUN NECHA KILOVATLI QUYOSH PANELI ZARUR?

- Korxonamiz O'zbekiston bozorida bir necha yildan buyon muqobil energiya tizimlarini o'rnatish borasida faol ish olib boryapti, - deydi "Smart Solar" MChJ bosh energetigi Karimbek Nurmurodov. - Biz Xitoyning "Jenke" "Trina-solat", "Luiji" kabi 12 yil kafolatli bo'lgan 450, 540 Vattlik "monokristal", 25-30 yil xizmat qiladigan quyosh panellari keltirib o'rnatyapmiz. Hozirda muqobil energiya tizimlarining yurtimizda eng ommabop bo'lgan turi akkumulyator-siz tarmoq hisoblanadi. Bunda kunduz vaqti quyoshli kunlarda iste'molchi o'z ehtiyojidan ortgan energiyani sotadi, quyoshsiz paytda elektr tarmoqlaridan energiya oladi. Asosiy elektr iste'moli kunduzga payt bo'lgani uchun ishlab chiqarish korxonalarini, xizmat ko'rsatish majmualarini ham energiyani aynan shu turini ma'qul ko'rishmoqda. Qolaversa, bu tizim ancha arzon. Bir kilovatt energiya ishlab chiqarish uskunasi o'rnatish xarajatlari (akkumulyator-siz) 6-6,5 million so'mni tashkil etadi. Akkumulyator bilan 9,5 million so'mdan boshlanadi. Bitta xonadon ehtiyojini qoplash uchun o'rtacha 5-7 kilovattli gidrid stansiya o'rnatish lozim bo'ladi. Bunda ortiqcha ishlab chiqilgan elektr energiyasini

**Isitish radiatori orqasidagi devorga issiqlikni qaytaruvchi ekran yoki aluminiy folgan o'rnatish qisqacha ichki xona haroratining 1-2 daraja oshishiga imkon beradi.**

elektr tarmoqlari korxonasiga sotish imkoni bo'ladi.

Yana hozirda "Geleviy" va "Ledion" stansiyali akkumulyatorlar ishlatilmoqda. "Geleviy" akkumulyatorlar bir-ikki yil, ko'pi bilan uch yil, "Ledion" akkumulyatorlar kafolatli muddat bilan 5,10,15 yilgacha ishlaydi. Standart 2 kvadratik bitta panel soatiga 450 Vatt elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bitta xonadonni to'liq muqobil energiyaga o'tkazish uchun islatish quvvatiga qarab o'rtacha 12 ta quyosh paneli o'rnatiladi. 2023-yilda 100 dan ortiq subyektda quyosh panellari o'rnatdik. Hozirda Urgut, Past Darg'om va Nurobod tumanlaridagi 500 ta xonadonga 3 kVtli quyosh panellari o'rnatish bo'yicha shartnomalar imzola-yapmiz. Yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarning har biriga kamida 18 kVtli quyosh panellari o'rnatish belgilangan. Shu asosda hamkor korxonalar tomonidan Samarqand shahri Qorasuv massividagi yangi uylar-ga quyosh panellari o'rnatilmoqda.

Haqiqatdan ham bu tizim jahon olimlari tomonidan ham kelajak energiyasi sifatida qaralmoqda. Ammo bu uskunalar juda qimmat va hozirda chetdan valyuta hisobiga keltirilmoqda. Agar bunday uskunalar o'zimizda ishlab chiqarilsa, narx arzonlashishi va bu tizimga ehtiyoj yanada ortishi mumkin.

Prezidentimizning 2022-yil 15-sentabrdagi "Energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, jismoniy shaxslar mamlakatda ishlab chiqarilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari va quyosh suv isitkichlarini uch yil mobaynida foizsiz bo'lib to'lagan holda sotib olishlari mumkin. Shunga o'xshash qurilmalarni o'rnatgan va ular qiymatini to'liq to'lagan shaxslar xarajatlarining bir qismi Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari tarmoqlararo energiya tejash jamg'armasi hisobidan to'lanishi belgilangan. Kompensatsiya miqdori qurilma quvvatidan kelib chiqqan holda bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 50 baravarigacha bo'lishi mumkin.

### SAMARQANDDA 32 kVt ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB CHIQRISH LOYIHALARI AMALGA OSHIRILMOQDA

- Respublikamizda muqobil energiya turlaridan foydalanish juda dolzarb masala hisoblanadi, - deydi viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bo'lim boshlig'i To'raxon Hoshimov. - Chunki uglevodod-

**Muzlatkichni gaz plitasi yoki isitish radiatori yonida o'rnatmang. Bu muzlatkichning elektr energiyasi iste'molini 20-30 foizga oshiradi. Kir yuvish mashinasidan foydalan-ganda, +60 darajadan pastroq haro-ratda kir yuvish energiya sarfini 30-40 foizga qisqartirish mumkin. Ovqat pishirish uchun sarflanadigan 1 kub metr gaz 2-3 kVt/soat elektr energiyasiga teng.**

**Havo sovutkich-dan foydalan-ganda, xona eshigi ochiq bo'lgan har bir daqiqacha uchun energiya sarfi 2 barobar ortadi.**

li yoqilg'ilar - ko'mir, gaz, neft zaxiralari kamayib bormoqda, iqtisodiyotda energiyaga bo'lgan talab oshmoqda, aholi ham ko'paymoqda. Yuzaga keladigan energiya yetishmovchiligining o'rni qoplash uchun muqobil energiya turlarini rivojlantirish zarur. Hozirda Samarqandda 1 milliard 200 million kVt elektr energiyasi ishlab chiqariladigan loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu paytgacha 164 million kVtli stansiyalar ishga tushirilib, elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Bular Nurobod tumanida 100 million kVtli va Cho'ponota massivida 64 million kVtli quyosh stansiyalaridir. Bundan tashqari, viloyatimiz aholisi va ishlab chiqarish korxonalarida 5 kVtdan 50 kVtgacha bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari qurilmoqda, bu ayniqsa xizmat ko'rsatish majmualarida yaxshi samara bermoqda. Aholida ham quyosh panellari o'rnatish-ga qiziqish yuqori, ammo bu qurilma o'rnatilganda qo'shimcha pul yoki soliq to'lash kerak ekan, degan noto'g'ri tushuncha mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston qonunchiligida quyosh panellari o'rnatganlik uchun hech qanday pul to'lash yoki soliq normalari mavjud emas. Bu tizim respublikamizda energetika tarmog'iga ko'maklashish va atmosferaga zararni kamaytirish uchun tatbiq etilmoqda.

Bundan tashqari, shamol energiyasini rivojlantirish bo'yicha o'rganishlar olib borilmoqda. Masalan, Bulung'ur tumani Yuqori nuqta maskanida yer sathidan 70-100 metr balandlikda doimiy shamol yo'nalishlari mavjud. Yana Urgut, Nurobod, Payariq tumanlarida 70 metr balandlikda shamol generatorlari o'rnatilsa, elektr energiyasidagi muammoni bir muncha hal etish imkoniyati bor. Yana gidros-tansiyalardan ham samarali foydalaniladi. Viloyatimizda kas-kad tizimida 9 ta kichik gidrostansiyalardan quvvati 64 million kVt elektr energiyasi olinmoqda.

Shuningdek, bio-energetika, kelajakda vodorod energetikasi rivojlanishi kutilmoqda. Chunki vodorod energetikasi ham ekologik toza energiya hisoblanadi. To'g'ri, muqobil energiya tizimlarining narx-navosi hozirda maosh-ga nisbatan biroz qimmatroq. Bu muqobil energiya uskunalarining import qilinayot-gani bilan bog'liq. Lekin quyosh panellari ishlab chiqarilgan zavodlar ochilsa, zarur uskunalar mahalliyashtirilsa, narxlar ta-biiy ravishda arzonlashadi. Quyosh panellari ishlab chiqarish uchun toza kvarts qumi zarur. Bunday qum yurtimizda juda ko'p. Bu xomashyodan to'g'ri foydalanib, uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsa, ham ichki bozorni ta'minlash, qolaversa, eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

### MAS'UL TASHKILOTLAR MA'LUMOTNI YASHIRISHDAN "MANFAATDOR"MI?

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevralda-gi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, muqobil energiya vositalarini o'rnatish, jumladan, ko'p qavatli uylarga quyosh panellari qo'yilishi va monitoring qilish bo'xona idoralari yuklatilgan. Afsuski, qaror ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot olish uchun qilingan murojaatlarimiz javobsiz qoldi. Vaholanki, bo'xona idoralari bu borada Prezident qarori bilan alohida vazifa yuklatilgandi. Shuningdek, Markaziy bank viloyat bosh boshqar-masidan muqobil energiya vositalarini o'rnatish istagidagi fuqarolarga qancha kredit ajratilganligi to'g'risidagi muro-jaatlarimizga ham javob ololmadik.

Payariq tuman hokimligi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilda tumanda 2 ming kilovattlik quyosh panellari o'rnatilishi rejalashtirilgan.

- Dastlab tashkilot rahbarlari, mahalla oqsoqollari o'z xonadonlariga o'rnatib, boshqarlarga o'mak bo'lyapti, - deydi tumandagi 14-maktab direktori G'ulom Eshatov. - Juvozxona mahallasida birinchilardan bo'lib o'rnatdim. 25 million so'mlik kredit evaziga o'rnatilgan mazkur panellarning qulayligini birinchi kundan sezdim. Chunki o'rnatishdan 2 kun avval texnik nosozlik tufayli mahallamizda elektr uzildi. Quyosh panellari o'rnatganimiz bois xonadonimda chiroq yonib turdi. Ehtiyojimizga yetarli elektr energiyasi ishlab chiqaryapti.

Bunday qulaylikni ko'rgan tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Abdulatif Bahodirov ham xonadoniga quyosh panellari o'rnatibdi.

- Men ham qulayligini eshitib, xonadonimga 5 kilovattli quyosh paneli o'rnatyapman, - deydi A.Bahodirov. - Shu paytgacha oyiga 300-400 ming so'm elektr energiyasi to'lovi uchun sarflardim. Endi uyimizda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj qondirilib, ortgan davlatga sotiladi. Mutaxassislarning aytishicha, oyiga kamida bir million so'mlik elektr energiyasini sotishim mumkin ekan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV "Zarafshon" muxbiri.

## Elektrchilar qish mavsumiga qanday tayyorgarlik ko'rgan?

Joriy yilda viloyatda elektr uzatish tarmoqlarida modernizatsiya va rekonstruksiya qilish ishlari olib borildi. Jumladan, Bulung'ur va Urgut tumanlaridagi «Yangi O'zbekiston» massivlarida 1 tadan toq taqsimlovchi qurilma, 6 ta transformator punktlari o'rnatilib, 1,2 kilometr kabel tortildi. "Tash-abbusli budget" loyihasi asosida 7 obyektga 45,3 kilometr elektr uzatish tarmog'i tortilib, 14 ta transformator punkti o'rnatish ishlari olib borilmoqda. "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" dasturlariga asosan, Kattaqo'rg'ondagi Melixo'ja, Ishtixondagi Qiyot, Past Darg'om tumanining Go'zalkent, Toyloq tumanining Tapaqishloq va Qo'shrabot tumanidagi Shovona mahallalarida 104 kilometr elektr uzatish tarmoqlari tortilib, 10 dona transformator punkti o'rnatildi.

Turli qaror va dasturlar asosida 178 kilometr tarmoq, 38 ta transformator punkti qurildi. Ikkita nimstansiyada rekonstruksiya, 6 tasida esa elektr uzatish tarmoqlari yangidan qurilyapti.

«Hududiy elektr tarmoqlari» AJ Samarqand filiali tomonidan o'tkazilgan matbuot anjumanida jurnalistlarga kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida 10 ming kilometr uzunlikdagi tarmoq, 3360 ta transformator punkti mukammal va joriy ta'mirdan chiqarilganligi haqida ma'lumot berildi.

- Hozirda barcha podstansiyalar va transformator punktlari navbatdan tashqari ko'rikdan o'tkazilib, moy sathi me'yorga keltirilmoqda, - deydi «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ Samarqand filiali direktori o'rinbosari Rustam Olimov. - Qo'shimcha 6 kilometr 6-10 kV yuqori kuchlanishli kabel tarmoqlari hamda 11 dona 400-630 kVa kuch transformatorlari olib kelib, aholi zich joylashgan va elektr quvvati yetishmaydigan hududlarga o'rnatish rejalashtirilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.



## Fakt va raqamlar

**«Hududiy elektr tarmoqlari» Samarqand filialidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, joriy yilning 8 oyi mobaynida elektr energiya sarfi uchun hisoblangan 2 trillion 292 milliard so'mi qarzni 503,4 milliard so'mi aholidan undirilgan. - Sentabr oyiga qadar yig'ilib qolgan 680,7 milliard so'm debitor qarzdorlikning 447,8 milliard so'mi aholi, 232,9 milliard so'mi esa ulgurji tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi. Davlatdan 4 milliard 552,4 million so'm qarzi bo'lgan 452 ta iste'molchi tarmoqdan uzib qo'yilgan. Viloyatdagi 83 ta sanoat ishlab chiqaruvchi korxonaning 23,8 milliard so'm debitor qarzi bor. Jumladan, "Jomboy don mahsulotlari" AJ 377,3 million so'm, "Payariq-klastar" MChJning 581,5 million so'm, Bulung'ur tumanidagi "Maroqand sifat" MChJ 288,6 million so'm qarzdor.**

Shuningdek, "Samarqand suv ta'minoti" MChJga qarashli korxonatashkilotlarning elektr energiyadan qarzdorligi 51,1 milliard so'm, viloyatdagi budjetga qarashli tashkilotlarning 12,1 milliard so'm, shuningdek, 2031 ta dehqon-fermer xo'jaliklarini 114 milliard so'mni tashkil etadi.



**Keyingi paytda onalar o'limi bilan bog'liq holatlar haqida tez-tez eshityapmiz. Garchi ona va bola salomatligini muhofaza qilish yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan, bu sohaga milliardlab mablag' sarflanayotgan bo'lsa-da, nega bunday holatlar yuzaga kelayapti? Bugun bu sohada qanday o'zgarishlar bor va qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Shu savollar bilan viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rinbosari Jamshid Jiyanovga murojaat qildik.**

- Keyingi yillarda onalar salomatligiga e'tibor biroz susaygandek. Xususan, ularning tibbiy ko'rikdan o'tishi bundan bir necha yillar avval juda qattiq nazorat ostida bo'lar, bu masala katta yig'inlarda ham muhokama etilardi.

- Siz, nazariyda, bundan ancha yillar avval o'tkazilgan ko'riklar va ularning doimiy hisoboti haqida so'rayapsiz. U paytlari rostdan ham bu masala jiddiy tahlil etilar va kamchilikka yo'l qo'yanlarga chora ko'rilardi. Bilasizmi, bunda asosiy masala ayollarni kontratseptiv vositalari bilan qamralishi bo'lardi. Oilani rejalashtirish, ayol sog'lom bo'lsagina, farzandlar sonini ko'paytirsin, degan masala birinchi o'ringa chiqardi. Bugun ham bu muhim, ammo aholida salomatligiga e'tibor o'tgan yillarga qaraganda yaxshilandi, ayollar sog'ligiga e'tiborli bo'la boshladi. Lekin bu ular tibbiy ko'rikdan o'tkazilmaydi degani emas, barchasi o'zi yashaydigan hududdagi tibbiy muassasalarda belgilangan muddat davomida ko'rikdan o'tishi kerak. Ya'ni, tibbiyotning har doimgi ishlari sifatida davom etmoqda. Faqat bu holat katta yig'inlarda muhokama etilmayapti. Umumiy miqyosda e'tibor, baribir bor, albatta. Xususan, shu yilning 5-avgustidan 31-avgustiga qadar viloyatda "Ayollar salomatligi" oyligi o'tkazilmoqda. Bunda aynan yuqorida aytganingizday, ayollar, ayniqsa, tug'ruq yoshidagi ayollar to'la tibbiy ko'rikdan o'tishi belgilandi. Bu jarayonda ular nafaqat oddiy kundalik tekshiruvlar, balki viloyat sog'liqni saqlash tizimida yaratilgan imkoniyatlar tufayli murakkab onkotekshtiruvlardan ham mobil tarzda o'tmoqda. Qolaversa, ushbu tekshiruvlar maqsadli va aniq kasalliklar bo'yicha olib borilayotgani e'tiborli. Misol uchun, shu yilning olti oyi davomida 140301 nafar ayol bachadon bo'yni saratoni skriningidan o'tkazilgan bo'lsa, ular orasidan 60 nafarida kasallik erda bosqichda aniqlandi. Ko'krak bezi saratoniga tekshirilgan 156 mingga yaqin ayollarning 57 nafarida xastalik oshkor bo'lyapti. Bu degani ayollar kasallikni erta bosqichda bilib, to'liq sog'ayib ketish imkoniga ega bo'lmoqda.

**- Ayollarning o'z salomatligiga e'tibori oshgani turli noxush holatlarning kamayishiga turtki berayptimi?**

- Tug'ruqxonaga kelgunga qadar tibbiy ahvoli haqida deyarli xabardor bo'lmagan, biron marta qishlog'idagi shifokorlik punktiga uchramayotgan ayollar soni kamaygan, demochimam. Ammo hamon o'z salomatligiga e'tiborsiz, to'rtinchi yoki beshinchi tug'ruq bilan kelib, ahvoli og'irlashayotgan ayollar bor. Yoki o'zi ahvolini tushunib tursa-da, qaynonasining zug'umi ostida farzand ko'rishga majbur bo'layotgan ayollar ham kam emas. Afsuski, onalar o'limi holatlari ham 35 yoshdan oshgan yoki to'rt va beshinchi farzand ko'rayotgan ayollar orasida sodir bo'lmoqda.

**- Gap onalar o'limi haqida ketarkan, keyingi paytda raqamlar oshgan kishini tashvishga soladi. Bu raqat ayollarning o'z salomatligiga e'tiborsizligidan bo'lmasa kerak...**

- Afsuski, raqamlar oshayotgani haqiqat. Tabiiyki, bunda ko'plab omillar mavjud. Misol uchun, Samarqand shahrida yuz bergan o'lim holati, Past Darg'omdagi holatlar yuzasidan tegishli mutasadd-

## Onalar o'limi:

# Bitta bo'lsa ham ko'p



dilarga intizomiy choralar ko'rildi.

**- So'nggi yillarda viloyatimizdagi beshta tuman mintaqaviy, bir nechta tumanga xizmat ko'rsatadigan perinatal markazlar tashkil etilgandi. Ulardan biri Past Darg'om tumanida joylashgan. Og'ir ahvoldagi homilador ayollarga yordam berishga mo'ljallangan perinatal markaz bo'la turib, nega ushbu tuman o'lim holatlari uchradi?**

- Yuqorida ta'kidlaganimday, avvalo ayolning o'z salomatligiga e'tibori juda muhim ahamiyatga ega. Birlamchi tibbiyot har bir homilador ayolni ro'yxatdan o'tkazishi va nazoratga olishi lozim. Lekin buning uchun ayollar hududidagi shifokorlik punktiga borishi kerak-da. Mana bu raqamga e'tibor bering: 2024-yil olti oyi davomida bir yilgacha bo'lgan muddatdagi tug'ruqlar 447 tani, ikki yilgacha bo'lgan muddatda 5531 ta, uch yildan ortiq bo'lgani 13981 tani tashkil etmoqda. Haliyam bir yil oraliq bilan farzandli bo'layotganlar bor, ularning soni oz emas. To'g'ri, bu raqam bundan 3-4 yil oldingi raqamlardan keskin kamaygan. Lekin shu to'rt yuz nafar onaning farzandini salomat, momolarimiz aytganday eson-omon dunyoga keltirishiga kim kafolat beradi. To'g'ri, Past Darg'omda shifokorlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolarimiz bor edi. Tumanlarda kadrlar tanqisligi masalasi hamon mavjud. Bu masalada tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kuchaytirilayapti. Tumanda onalar o'limi sodir bo'lishi ortidan bir nechta rahbarlar ishdan bo'shatildi va boshqa choralar ko'rildi.

**- Ma'lumotlarga ko'ra, respublikada ham bu ko'rsatkich oshganini kuzatish mumkin. Aytinchi, mazkur masala bo'yicha ilmiy bir ayosalar ham mavjudmi?**

- Respublika miqyosida onalar o'limi bilan bog'liq har bir holat chuqur o'rganilmoqda, tahlil etilyapti. Hozircha izlanishlar davom etayapti, ammo bular aniq xulosalar emas. Yaxshi bilasiz, butun dunyo kovid virusini boshidan o'tkazdi. O'sha paytlardayog' dunyo olimlari uning asoratlarini hali qanday bo'lishini hech kim aniq aytolmaydi, deya bashorat qilgandi. Bu taxminlar bugun tibbiyot sohasi vakillari tomonidan to'planayotgan ba'zi statistikalarda o'z ifodasini topyapti. Ba'zi xastaliklar soni ortib ketganining sabablari aynan kovid tufayli, degan xulosaga allaqachon kelib bo'lindi. Afsuski, onalar o'limi bo'yicha kuzatilgan ba'zi tashxislar ham hozircha shunday taxminlarni bermoqda. Chunki homiladorlikning barcha bosqichlarida vrachlar nazoratida bo'lib, tug'ruq payti ahvoli keskin yomonlashayotgan, qon ketish holatlari uchrayotgan ayollarni kuzatayapmiz.

**- Aholiga bunday paytda ko'proq qanday tavsiyalarni bergan bo'lardingiz?**

- Birinchi navbatda yuqorida ta'kidlaganimday, ayol onalikka tayyorlanishi kerak, farzandlari oraliq idagi muddat bir, ikki emas, uch yil bo'lsa, maqsadga muvofiq. Doimiy ravishda organizmidagi vitamin yetishmovchiligini to'ldirib borishi, hali qiz bola paytidanoq tabiiy, vitaminli mahsulotlarni iste'mol qilib, organizmini tayyorlab borishi lozim. Chunki bizda turmush qurgandan so'ng organizmini onalikka tayyorlash haqida gapirib bo'lmaydi. Agar shunday bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Homiladorlikda kuzatilayotgan charchoqlarga e'tiborsiz bo'lmaslik, ammo doimiy harakatsiz ham qolmaslik lozim. Ayniqsa, ona bo'layotgan kelinlarni butun oila qo'llab turishi juda muhim.

**- Go'daklar o'limi bilan bog'liq masalalarda ijobiy raqamlarga ko'zimiz tushdi. Ammo ularning har biri baribir og'riqli. Bu borada olib borilayotgan ishlar haqida ham to'xtalib o'tsangiz.**

- Alohida ta'kidlashni istardim, sodir bo'lgan har bir ona va go'dak o'limi holati hokimlik soati-da viloyat hokimi tomonidan muhokama qilinib, chora-tadbirlar belgilanmoqda. Kamchiliklarga yo'l qo'ygan barcha mas'ul rahbarga nisbatan keskin choralar ko'rilmog'da.

Shuningdek, tug'ruqqa ko'maklashuvchi muassasalardagi xodimlarning amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida respublika ixtisoslashgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy markazi viloyat filialidan tumanlarga va og'ir tumanlardan markazga xodimlarni uch oy muddatga almashtirib ishlatish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ushbu amaliyot dastlab Past Darg'om tuman tibbiyot birlashmasida qo'llanildi va bu o'z samarasini bermoqda.

Eng asosiysi, bemor bolalarning viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga aksariyat hollarda transportirovka vaqtida og'irlashib kelishining oldini olish va bolalar o'limini kamaytirish maqsadida Urgut, Bulung'ur, Samarqand, Narpay, Payariq, Past Darg'om tumanlari hamda Kattaqo'rg'on va Samarqand shaharlarida mahalliy hokimliklar bilan birgalikda bolalar reanimatsiyasi bo'limlari tashkil etildi.

Yil yakuniga qadar qolgan 8 tumanida shunday bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Bu kabi choralar tufayli bir yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45 taga, besh yoshgacha bolalar o'limi o'tgan yilga nisbatan 66 taga kamayishiga erishildi.

Yana bir yaxshi yangilik, shu yilning o'zida viloyat tug'ruqxonalarida qo'shimcha joylar ajratilmoqda. 150 o'rinli tug'ruqxonalar ba'zida 250 nafar homilador ayolni qabul qilayotgan tibbiyot muassasalari uchun bu juda muhim ahamiyatga ega. 2027-yilga qadar o'rinlar soni 566 taga yetishi rejalashtirilgan. Shuningdek, shu yil barcha tug'ruq muassasalari qo'shimcha tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi.

Dunyo bo'yicha onalar va bolalar o'limi eng kam ko'rsatkich hisoblangan Belarus davlati bilan hamkorlik ishlari boshlaganmiz. Shifokorlarimizning tajriba almashishi, ularning bu yerda o'z ko'nikmalarini o'rgatishi bo'yicha kelishuvlarimiz bor.

**- Suhbatingiz uchun rahmat.**  
**Gulruh MO'MINOVA suhbatlashdi.**



## Qo'shrabotda bolalar reanimatsiyasi bo'limi tashkil etildi

**Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining malakali mutaxassislari tomonidan Qo'shrabot tumanini Qo'shrabot, Qovunchi, Yangiobod mahallalaridagi 1319 ta xonadonda yashovchi aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.**

Mutaxassislar aholi salomatligi bo'yicha muammolarni aniqlashdi va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi. Nogironligi bo'lgan shaxslar, surunkali og'ir va onkologik kasalliklari mavjud yoki shu kasallik alomati bo'lgan bemorlar aniqlanib, ularni keyingi tekshirish va davolash uchun tuman yoki viloyat muassasalariga yo'llanmalar shakllantirildi.

- 11 nafar bemorda markazning malakali jarrohlari tomonidan tuman tibbiyot birlashmasida yuqori texnologik operatsiyalar amalga oshirildi, - deydi viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining bosh vrachi o'rinbosari Dilshod Rahmonov. - Ikki nafar yurak tug'ma nuqsoni bilan "D" nazoratiga olingan bemorda ochiq yurakda murakkab texnologik operatsiya o'tkazildi. Bu bemorlar-da jarrohlik amaliyotini o'tkazishda markazning yetuk kardiologlari, perfuziologlari ishtirok etdi.

Markaz ko'magi bilan Qo'shrabot tuman tibbiyot birlashmasida bolalar reanimatsiyasi va chaqaloqlar intensiv davolash bo'limini tashkil etish bo'yicha ish olib borilmoqda. Hozirga qadar ushbu yangi bo'lim uchun 10 dona kislorod konsollari, kislorod ballonlari ajratildi, ularni montaj-demontaj qilish bo'yicha mutaxassislar tumanga yo'naltirildi. Shuningdek, tuman shifokorlari markazda mutaxassisligi bo'yicha malaka oshiradi. Hozirda mazkur yangi bo'limda markaz shifokorlari faoliyat olib borib, mahalliy vrachlarga tekshirish va davolash borasida yaqindan yordam bermoqda.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayeva notarial idorasida marhum Ergashev Baxtiyor Erkinovichga (2023-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raxmanova Xushvaxtga (2016-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Egamberdiyev O'tkirma (2020-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan

merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Gaffarov Sattor Salamovichga (2007-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Mahmudov Zokir Marufovichga (2021-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadi-

yevo Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xatamov Komilga (2024-yil 17-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychievich notarial idorasida marhum Karimova Maxkamga (2017-yil 29-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychievich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi, Tong Yog'dusi ko'chasi, 39-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Akramov Shodmonga (2003-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychievich notarial idorasida marhum Narzikulov Norkulga (2013-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychievich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi, Tong Yog'dusi ko'chasi, 39-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrlilloyeva notarial idorasida marhum Xalikova Sofiya Kokandovnaga (1998-yil 7-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrlilloyeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasida marhum Saftarov Sora Mamadovnaga

(2024-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirbegim ko'chasi, 5/1-uy.**

**BEKOR QILINADI**  
Achilov Baxodir Raxmanovich nomidan ishonchnoma asosida Gulamov Sanjar Xojikurbonovich va Jurayeva Zebo Raxmanovnalr o'rtasida Samarqand shahri "Kamoliddin Behzod" MFY, Firdavsiy ko'chasi 84-uy, 56-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasidan 2023-yil 28-avgustda tasdiqlanib, Ksh 119975 SA blankada tuzilgan, 202301763002233 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

**TOPGANGA MUKOFOT!**

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasidan Sadiyev Sayfididdinga 2000-yilda berilgan 1495 raqamli pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.  
**Telefon: +99893-354-17-46.**

Yaqinda mustaqillikning o'ttiz uch yilligi munosabati bilan turli sohalarda mehnat qilgan bir guruh fidoyi xodimlar davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ular orasida II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan mukofotlangan samarqandlik faxriy pedagog Xadicha Vafayeva ham bor.

Xadicha opa bilan suhbatimiz yoshlik damlari, pedagogik faoliyati, turmush o'rtog'i akademik Botirxon Valixo'jayev bilan kechirgan umri haqida bo'ldi.

- Samarqand shahrining Toshkent ko'chasida kinoxona bor edi, lekin hech kinoga bormasdim, - deb eslaydi Xadicha opa yoshligini. - Nima bo'ldi-yu uyimizga mehmon kelgan jomboylik xolamning qizi kinoga borishni taklif etdi. Taqdiri qarangi, o'sha kuni domla ham o'rtoqlari bilan kinoga tushgan ekan. U kishi ham aslida hech kinoga bormas ekanlar. Xullas, biz oldingi qatorda o'tirdik, kinoni ko'rdik, chiqib ketishimizda domla meni ko'rib qolgan ekanlar. Biz hech kimga e'tibor bermay, uyga qaytdik.

Domla o'rtoqlari bilan ortimizdan kelib, uyimizni aniqlab ketgan, ammo men buni bilmaganman. Keyin uyimizning yonida choyxona bor edi, o'sha yerga u kishi otasini olib kelgan. Ular mening yudan chiqishimni, choxonaning yonidan o'tib-qaytishimni kuzatgan. Bu ham yetmagandek, domla meni boshqalardan ham surishtira boshlaganlar. O'sha paytda Samarqand davlat universitetining matematika fakultetida 1-kursda o'qirdim. Domla bir o'rtoq'iga meni ko'rsatsa, "Jo'ra, men bu qizni taniyman, uning sinf rahbarim", debdi. Sinf rahbarimiz G'iyos Bahriyev matematikadan dars berardi.

Botirxon Valixo'jayev sinf rahbarimizga meni yaqindan ko'rish niyati borligini aytibdi. Shunda uch o'rtoq o'zaro kelishib, bir reja tuzibdi. Auditoriyada o'tirib, G'iyos Bahriyev kelib qoldi. U biz, talabalarga "Hozir domlalar sizlarga doklad uchun mavzular beradi, tushunmagan joylaringizni so'rab olinglar", dedi. So'ng ikki nafar yosh domla kelib, biz bilan biroz savol-javob qildi. O'zlarida mavzular borligini, bizga taqsimlab berishini va ko'pchilikning oldida o'qib berishimni aytishdi. Tortinchoqligim bois ko'pchilikning oldida gapirolmayman, deb mavzu olishdan bosh tortdim. Yosh domlalar negadir majbur qilishmadi, mavzularni boshqa kursdoshlarimga berib ketishdi. Mavzu olgan kursdoshlarim doklad qilishga rosa tayyorlanishdi. Ammo ular kutganidek ko'pchilikning oldida emas, o'zimizning kursimiz ichida o'qib berishdi. Yosh domlalar biri Botirxon Valixo'jayevning o'zi hatto taqdimotga kelmadi.

# "Valixo'jayevga so'z berganman"

Aslida shu arzimas bahona bilan u kishi meni yaqindan ko'rib ketgan ekanlar. Men sochlari uzun, qoshlari qora, chiroyli qiz edim.

Shundan so'ng uyimizga sovchilar keldi. O'zaro suhbat jarayonida bilishsa, domlarning otasi bilan amakim bir joyda ishlagan ekan. O'sha kunlari menga ko'p joydan sovchilar kelayotgandi. Amakim dadamga "Qizingizni bersangiz shu yigitga bering, ularning nasli toza, o'qigan, ziyoli oila", deganini eshitdim.

Kattalarning o'zlarini kelishib, meni unashtirib qo'yishdi. Biz ikki yarim yil unashtirilgan turdik, ammo bu davrda biron marta uchrashmadik ham, gaplashmadik ham.

## ZAGSga TRAMVAYDA BORDIM

Bir kuni yangam "Tayyorlaning, ZAGSga boramiz", deb qoldilar. Avvaliga ko'nmadim, yangam bormasak bo'lmaydi degach, havo sovuq bo'lganligi uchun egnimga plash va boshimga jun ro'mol o'rab chiqdim. Hech qanday yasan-tusan qilmadim. Yangam bilan tramvayda yangi shaharga keldik. Kinoteatrning oldida ZAGSxona bor ekan. Kuyov bola jo'rasi bilan bizni kutib turgan ekan. Uyalganimdan kuyovning qo'lidagi gulni ham olmabman, gulni yangam oldi. Xullas, ichkariga kirdik, ko'rsatilgan joyga imzo qo'yib, darhol uyga qaytibman, kuyov bilan gaplashmabman ham. Hatto ular biron joyda o'tiramiz deb meni izlab qolishibdi. O'sha zamonning qizlari mana shunday tortinchoq edi.

Bir kuni u kishining onalari kelib: "O'g'lim ilmiy ishini himoya qilib olsin, keyin to'yni o'tkazamiz. To'y nega cho'zilyapti, deb hayron bo'lmanglar, biz ayniganimiz yo'q", deb ketibdi. Ammo otalari betob bo'lib qolgan uchun noyabr oyining o'rtalarida tezda to'yimni o'tkazishadigan bo'lishdi. To'y o'zimga bo'ldi, 100 kishiga yaqin odam qatnashdi. Hozirgi to'ylarni va ulardagi dabdabalarni ko'rib hayron qolaman. Avvalo, har kimning baxtini bersin!

To'ydan keyin qaynotam tuzalib ketdilar. U kishi betobligida qarab, duolarini olganman. Men ushbu xonadonga katta kelin bo'lib tushdim. Qaynota, qaynonam, uch nafar qayinsingim va ikki nafar qayinukam bilan birga ahillikda yashadim.

Otam turmush-

ga chiqishimdan oldin: "Qizim, kuyovimni va oilasini hurmat qil, ular ziyoli odamlar. Bu yerdagi erkalingni ularga qilma", dedi. Haqiqatda men biroz erka edim.

## O'N YIL BOG'CHADA ISHLAB, BIR QOSHIQ OVQATIDAN YEMADIM

1960-yil universitetni tugatdim. Samarqand shahridagi 5-maktabga ishga kirdim. Maktabda matematika fani o'qituvchilari ko'p ekan. Matematika fanidan dars yo'qligi uchun avvaliga mehnat fanidan dars oldim. Keyinroq fizika fanidan dars berishdi. Qariyb 20 yil fizikadan o'quvchilarga ta'lim berdim. O'quvchilarimni o'z bolamdek yaxshi ko'rardim. Darsda o'quvchilardan birortasining ko'zi yumilib ketayotgan bo'lsa, konfet berardim, uyqusi ochilib ketardi. Doim o'zim bilan igna, ip olib yurardim. Biror bolaning tugmasi uzilib tushsa, darrov tugmasini qadab berardim. O'quvchilarim ham daruga odob bilan o'tirardi, o'qituvchining oldida janjal-to'polon qilmasdi.

Maktabda fizika fani o'qituvchilari ham ko'p edi, shuning uchun dars soatlarim kamayib ketdi. Kunlarning birida kutilmaganda menga bog'cha mudirligini taklif qilishdi. Samarqand tumanidagi bolalar bog'chalaridan biriga mudira bo'lib ishga kirdim. Bu vazifa boshida notanishdek tuyulgan bo'lsa-da, bog'chada yaxshi ishladim. Uch yildan keyin shahardagi 22-bolalar bog'chasiga mudira bo'ldim. Turmush o'rtog'im bog'chada ishlashimga qarshi edilar. To'g'rirog'i, u kishi bolalarning haqini yeyishimdan qo'rqardi. Oxiri turmush o'rtog'im bog'chada hech narsa yemaslik va uyga hech narsa olib kelmaslikka so'z berdim. Shundan keyin so'zimga ustida turib, bog'chada biror narsani tatib ham ko'rmadim. Agar oshpazlar ovqatning tuzini ko'rib bering deysin, hamshiraga aytinlar, derdim. 1986-yilda shu bog'chadan pensiyaga chiqdim, ammo uyda ko'p o'tirolmadim, zerikdim. Doim harakatda ishlab yurgan odam uyda bekor o'tirolmas ekan. Xullas, pensiyaga chiqqanimdan keyin biroz muddat to'qimachilik bilim yurtida, keyin shahar xalq ta'limi bo'limida, "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limida ishladim. Hozir ham viloyat nuroniylar jamoatchilik kengashi a'zosi. Qayerda mehnat qilgan bo'lsam, samimiy, dilkash odamlar bilan hamsuhbat bo'ldim. Biron kishi bilan "sen-men"ga bormadim. Halol, fidoyi, intizomli mutaxassis sifatida qadrladim. Kamtarona mehnatlarim bugun ham



hukumatimiz tomonidan e'tirof etilayotgani meni xursand qildi. Buning uchun Prezidentimiz va hukumatimizdan minnatdorman.

## TURMUSH O'RTOG'IM TO'Y-MARAKADA O'N BESH DAQIQADAN KO'P O'TIRMASDI

Domla universitetga faqat darslari bo'lsa borardilar. Qolgan vaqtlari uyda o'qish-yozish bilan band bo'lardi. Hech qachon ulfatchilik qilmasdi, to'y-marakalardan ham tezda qaytardi. Biror zarur to'y yig'ib chiqib qolsa, o'n besh minutdan ko'p o'tirmasdi, hatto men darvozani yopib ulgurmasimdan qaytib kelardilar. "Darrov qaytib-siz, ma'raka tamom bo'ldimi?" desam, "Tabrikladim, bo'ldi-da", derdilar.

Turmush o'rtog'im otamnikiga borsa ham ko'p o'tirmasdi. Boshida otam nega ovqat pishuncha o'tirmaydi, deb xafa bo'lardi. Keyinchalik u kishining xarakterlariga o'rganib qolgach, eshikdan kelishlari bilan kulib, necha daqiqaga keldingiz, deb so'raydigan bo'ldilar. Biroz onamning yonida qolmoqchi bo'lsam, otam unamasdilar: "Birga keldingmi, birga ketaver", derdi.

Onam oppoq dasturxon to'shlab, hamma narsani tayyorlab, ustini yopib, otamning ishdan kelishini bayramdek kutib olardi. Otamni juda hurmat qilardi. Turmush o'rtog'ini qanday hurmat-izzat qilishni onamdan o'rgan-dim. Umr yo'ldoshim bilan 50 yil yashagan bo'lsam, faqat bir-birimizni avaylab, yaxshi gapirib, ko'nglimizga qaradik. Doim bir-birimizga sizlab muomala qilardik.

Biz to'rt qiz va ikki o'g'lini tarbiyaladik. Ikkinchi qizim Farida fan nomzodi bo'ldi. Katta o'g'lim maktab direktori, ikki nafar farzandim huquqshunos. Bugun qirq nafarga yaqin nevara, evara, ikki nafar chevaraning buvisiman.

Botirxon Valixo'jayev bilan sevib-sevilib, baxtli hayot kechirdim. Hayotim mazmunli o'tdi.

**Xurshida ERNAZAROVA**  
yozib oldi.

# EKOLOGIYA VA INSON

Yashil dunyoning asab tolalariga tegmaylik

**Jomboynig G'ob'dintog' yaqqol ko'rinib turadigan tarafdida Sarqipchoq degan qishloq bor. Yuz yillarki, havosi soz, yon-atrofi daraxtzor, dashtlaridan doim turfa gulu giyohlar ishi anqib turadigan bu xushtabiat go'sha mening kindik qonim to'kilgan joy.**

Har gal qishlog'imga borsam, mayin shabadalaridan jonim yayraydi, hovillardagi rayhonlar hidi dimog'imga uriladi. Ayniqsa, qishloqning oqshomlari yanada go'zal, yirik-yirik yulduzlar shundoqqina tepamda charaqlab turadi. Xuddiki qora baxmal ustiga tillarang chuchmomalar sochilib ketganday! Bu manzara shundayki, bir bor ko'rsang, yana sog'inasan, o'z tarovati bilan uzuoq vaqtgacha ko'z o'ngingdan ketmay turaveradi...

Goho o'yab qolaman. Nega shahar osmonida yulduzlar yarqirab ko'rinmaydi? Olimlarning tadqiqot natijalarini o'qigach, shu savolimga javob topgandek bo'laman. "Katta ko'chalarda tinimsiz qatnab turgan transport vositalaridan ajralayotgan zaharli chiqindilar tufayli biz nafas olayotgan atmosfera havosi anorganik moddalar (ya'ni mis, rux, volfram, margimush, simob) bilan tobora ifloslanmoqda".

Ekologik buzilishlar haqida qayta-qayta gapiriladi. Biroq yon-atrofga biz tomonimizdan yetkazilayotgan ozorlar salomatligimiz yomonlashayotganligiga sabab bo'lmayotganlikni, mulohaza qilaylik.

Aslida biz ona deb bilguvchi tabiatning o'z ichki dunyosi, nozik qonuniyatlarini bor...

## HAVO FABRIKASI

Baliqko'z degan o'z haqida ko'pchilik eshitmagan. O'zi yomg'irlar chetlab o'tadigan sahroda o'sadi. Lekin gulbarglari va

pozasiga shunchalik ko'p suv yig'ar ekaniki, uni qayerdan olganiga ajablanasiz.

Saksovollarga yashiringan mo'jizani ham aytay. Ular erta ko'klamda gullab, urug' yig'adi, so'ng jazirama issiqda urug'lari nobud bo'lmasligi uchun gulkosalarini yumib oladi. Saratondan o'tib olgach, yana ochilib, urug'larini voyaga yetkazadi, shu yo'l bilan o'z naslini davom ettiradi.

Olimlar fikricha, yashillik dunyosida ham asab tizimi mavjud. "Daraxtlarning tanasi - orqa miya, butoqlari - yetmish ikki ming asab torlari, barglari o'pkasidir", deyishadi mutaxassislar.

Ayniqsa, daraxt bilan inson o'rtasida uzviy aloqa borligini eshitmagandirsiz. Bog' ichidagi daraxtlar odamning ichki holatini his etishini-chi?

Kishi horg'in va ma'yus qolganida bir zum daraxtga suyanib tursa, charchog'i ketib, vujudi kuchga to'ladi. Daraxt qanchalik yo'g'on va baquvvat bo'lsa, uning quvvat manbai ham shuncha kuchayaveradi.

Daraxt ekish hamma zamonlarda ham xayrli ish hisoblangan. "Boburnoma"da yo'zlashicha, Zahiriddin Muhammad Boburdek ulug' hukmdor o'zi qarorgoh etgan joylarda daraxtzor bunyod qilib, suv yo'larini o'tkazish rejalarini tuzgan ekan!

Daraxtlarning shunday xususiyatlari ham borki, bu haqda bilib qo'rgan ma'qul. Hisob-kitoblarga ko'ra, terakzorlar naq 340 kilogramcha changni o'ziga yutarkan. Bir tup sada daraxtning salqinligi o'rta sovuq-kich quvvatiga teng ekanligi aniqlangan.

Yong'oqlar ekilgan joylarni olimlar "havo fabrikasi" deb atashadi. Bir tup archa qishda qorni, yozda namni saqlaydi, bu jihatdan uning kuchi naq bitta quduqnik bilan barobar.

## SUV - AZIZ NE'MAT EMASMI?

Ona sayyoramizning to'rtinchi qismi, aniqrog'i, 79 foizi suv bilan qoplangan. Lekin uning atigi 6 foizi chuchuk suvdan iborat bo'lib, bor-yo'g'i 2,5 foizi iste'mol



uchun yaroqli. Olimlarning bugungi kundagi tadqiqotlari natijasiga ko'ra, yer yuzida yashovchi bir milliarddan ortiq odam toza ichimlik suv bilan ta'minlanmagani tufayli og'ir xastalikka duchor bo'lishmoqda. Axir suv tanqis bo'lsa, tuproqda hech narsa ummaydi, hayot so'na boshlaydi.

Oqar suvlarga chiqindi tashlash holatlari tez-tez uchrayotgani ma'lum. Bu hol ham-mamizni sergak torttirishi kerak, bizningcha. Chunki inson salomatligiga salbiy ta'sir etayotgan zararli omillarning 35-40 foizi suv tarkibining buzilishi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Shifokor olimlarning aytishlaricha, tarkibida nitratlari (zaharli moddalari) ko'p ichimlik suvi qonimizdagi eritrotsitlarda kisorodga bog'lang talabni yetarlicha qondirolmaydi.

Ichimlik suvining toza yoki har xil keraksiz moddalar bilan qay darajada ifloslanishini aniqlashning eng oson va ishonarli usuli ilk bor Ibn Sino tomonidan taklif etilgan. Buning uchun bir xil idishdagi suvlarga alohida-alohida toza paxta bo'lari tashlanadi. Keyin ulardagi suv bir xil me'yordagi kuch ta'sirida siqib tashlanib, yana o'lchanadi. Qaysi idishdan olingan paxta og'irlashganligiga qarab, aynan shu suv tarkibida yot moddalar ko'pligi va uning ikkinchisiga nisbatan iste'molga yaroqsizligi aniqlanadi.

Anhorlar suvining ifloslanayotganligi endilikda sir bo'lmay qoldi. Bobolarimiz yoshlik paytlarida ariq suvini ichganliklarini ko'p gapirishadi.

Hozir-chi? Anhor suvlari yuz-qo'llarni yuvishgayam yaroqsiz. Nega shu ahvolga kelib qoldi suvimiz? Shular xususida ham fikr yuritsak, yomon bo'lmaydi...

## YERNI IFLOSANTIRGANLARGA 400 QAMCHI JAZO BO'LGAN

Oltinko'z, xonqizi, tilla qo'ng'izlar... Shu mitti jonivorlar ilgari davrlardan qolib ketganmikin deb o'ylayman gohida. Olimlar foydali hasharotlarning kamayib ketayotganligiga tuproqning kimyoviy o'g'itlar bilan zararlantirishini sabab qilib ko'rsatishmoqda.

Yaqinda xonqizi qo'ng'izlariga oid qiziq bir ma'lumotni eshitib qoldim. Havo soviib, izz'irinli kunlar boshlanishi bilan xonqizilar gala-gala bo'lib, uzoq adirlikka uchib boshlarkan va bir-birlariga yopishib, shu ko'yi muzlashar ekan. Qish adog'iga yetib oftobli kunlar kelgach, kattakon muz bo'lari erib, xonqizilar bitta-bitta uchib chiqisharkan!

Endilikda foyda keltiruvchi xonqizi bilan birgalikda daladagi zararkunandalarga qiron keltiradigan ayrim qushlar ham oza-yib bormoqda.

Qarang, boyqush yozgi mavsumda mingtadan ko'p dala sichqonini tutib yeyishi natijasida bir tonnadan ortiq bug'doy saqlab qolinarkan. Qizilishton esa daraxtlarni kemiruvchi qurtlar bilan oziqlangan bo'lsa yuzlab daraxtlar kasallikka chalinmay, navqirionligicha qoladi.

Ba'zi davlatlarda foydali jonivorlarga ziyon yetkazadiganlarga maxsus jazo turlari bor. Masalan, chet elda kimdir oddiy chuvalchangni shaxsiy maqsadda (aytaliq balik tutishda qarmoqqa ilish uchun) tuproqdan ajratib olsa, unga "tuproqning tabiiy holatiga zarar yetkazdi" degan ayb qo'yilib, jarimaga tortilarkan. Yoxud birorta ko'p yillik giyohni tag tomiri bilan yulib olgan kishiga xuddi shunday giyohdan yana ellik tup ekib, ko'paytirib berish majburiyati yuklanadi.

Ming-ming yillar avval yaratilgan asarlarda ham tabiatdagi mavjudotlarni asrab-avaylash haqida ko'plab voqeiliklar bayon etilgan. Jumladan, "Avesto" keltirilishicha, qadimda yerni iflos qilgan va unga ziyon yetkazgan

kishilarga 400 qamchi urish jazosi belgilangan. O'simliklarni payhon qilgan odamlarga qadimda ayblarini yuvish uchun 10 ming tup xushbo'y giyohni ekish, minglab zararli hasharotlarni o'ldirish buyurilgan.

Qo'ng'iz va qushlarning aslida o'z vazifalari bor. Ularning aksariyati kasallik tarqatuvchi pashshalarni qiradi yoki daladagi ekinlarni yub bitiradigan zararkunandalarni tutadi, shu jihatdan qishloq xo'jaligiga naf keltiradi.

## TABIATDA YARATILGAN SHAROIT

Chang-g'ubor bo'lmaganda odam ming yil yashar edi, degan ekan Abu Ali ibn Sino. Lekin biz yashayotgan muhitda chang hamma vaqt bor va u sog'ligimiz uchun katta tashvish keltiraveradi.

Ko'pchiligimiz changyutkich moslamasining eng so'nggi rusumdagisini xarid qilgach, xotirjam bo'lamiz. Endi uylar top-toza, bir gramm ham changni qoldirmay tortib oladi, deb o'ylaymiz. Lekin eng zo'r changyutkich ham faqat ko'zga ko'rinadigan changni yig'a olarkan, xolos. U quvillab ishlayotgan paytda nafaqat chang yutadi, balki changni tarqatadi ham.

Changyutkich changni yig'ar ekan, ko'zga ko'rinmas chang quyuni ham hosil qiladi! Biz uy ichida bo'lar ekanmiz, doimo changli havodan nafas olaveramiz.

Toza havoda vaqti-vaqti bilan sayr qilish o'pka ishini yaxshilashning eng ajoyib usuli ekan. Musaffo havo immun tizimini mustahkamlaydi, charchoqni ketkazadi, musbat zaryadlangan qonni musbat ionlar bilan to'yintiradi.

Aslida tabiatda biz uchun hamma shart-sharoit yaratib qo'yilgan. Uning bag'rida o'zimizni sog'lom va xotirjam his qilamiz, xuddi onamiz quchog'ida yayragan kabi orom olamiz, zavqlanamiz.

Lekin bizning ham majburiyatlarimiz bor. Bu shundayki, ona tabiatni sevib-ardoqlashga, gulu giyohdan tortib mitti jonivorlarga, hamma-hammasiga shafqat va mehr ko'rsatishga hamisha burchlimiz.

**Gulchehra JAMILOVA,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 664 nuxxada chop etildi. Buyurtma 497. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**F.RO'ZIBOYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda